

TILSHUNOSLIKDA DIDAKTIK TERMINLARNING SINTAKTIK TABIATI

Xojiyeva Maxfirat Yusupovna

Buxoro davlat universiteti dotsenti

xojiyevamaxfirat8@gmail.com

Abduraximova Shoxsanam Nazir qizi

BuxDU lingvistika: o'zbek tili yo'nalishi I bosqich magistranti

Annotasiya: *mazkur maqolada o'zbek tili ta'lim jarayonida qo'llaniladigan didaktik terminlarning sintaktik jihatdan qurilishi, tarkibiy tuzilishi hamda hosil bo'lishining o'ziga xos xususiyatlari tahlil qilinadi. Terminlar tuzilish jihatdan so'z, qo'shma so'z, so'z birikmasidan tashkil topganligi modellar asosida o'rganilgan va misollar asosida isbotlangan. O'zbek tili ta'lim jarayoni qo'llaniladigan terminlarning til tizimidagi o'rni hamda ularning didaktik jarayondagi funksional ahamiyati ochib berilgan.*

Kalit so'zlar: *didaktik termin, sintaktik qurilish, ta'lim terminologiyasi, murakkab termin, so'z birikmasi, terminlar, termin yaratish.*

Аннотация: *В данной статье анализируются синтаксическое строение, структурный состав и особенности образования дидактических терминов, используемых в процессе обучения узбекскому языку. Термины с точки зрения структуры изучаются на основе моделей и доказываются примерами как единицы, состоящие из слова, сложного слова и словосочетания. Также раскрывается место терминов, применяемых в процессе обучения узбекскому языку, в системе языка и их функциональная значимость в дидактическом процессе.*

Ключевые слова: *дидактический термин, синтаксическое строение, образовательная терминология, сложный термин, словосочетание, термины, терминообразование.*

Abstract: *This article analyzes the syntactic structure, compositional features, and specific characteristics of the formation of didactic terms used in the process of teaching the Uzbek language. From a structural perspective, the terms are examined through models and supported by examples as units consisting of a single word, compound words, and word combinations. The article also reveals the place of terms used in the teaching of the Uzbek language within the language system and highlights their functional significance in the didactic process.*

Key words: *didactic term, syntactic structure, educational terminology, complex term, word combination, terms, term formation*

Kirish. Bugungi kunda tilshunoslikning dolzarb yo'nalishlaridan biri sifatida ta'lim jarayonida qo'llanilayotgan terminlarning tuzilishi, tabiati va funksional xususiyatlarini aytishimiz mumkin. Chunki didaktik terminlar ta'lim jarayonining mohiyatini ochib beruvchi ilmiy leksika bo'lib, ular sintaktik jihatdan o'ziga xos tizimni tashkil etadi. O'zbek

tilida didaktik terminlarning shakllanishi, ularning tarkibiy strukturasini o'rganish, ta'lim tizimidagi kommunikativ jarayonlarni to'g'ri tushunish imkonini beradi. Ko'plab ilmiy tadqiqotlar va manbalarda didaktik terminlar leksik-semantik, morfologik yoki stilistik jihatdan tahlil etilgan bo'lsa-da, ularning sintaktik modeli alohida ilmiy izohni talab qiladi. Shuning uchun mazkur tadqiqot o'zbek tilidagi didaktik terminlarning sintaktik qurilishini tizimli o'rganishga qaratilgan.

Asosiy qism: Rus faylasufi P.A. Florenskiy terminologiya haqidagi mulohazalarni bayon qilar ekan, unga ko'ra, fanning mohiyati terminologiyani tuzish yoki, aniqrog'i, joy-joyiga qo'yishdan iborat. Har qanday fanning o'z terminlar tizimi mavjuddir. Shuning uchun terminlar hayoti fan tarixini o'zida akslantiradi. Bundan kelib chiqib aytishimiz mumkin, fanning fan ekanligi uning terminlar orqali namoyon bo'lishidadir. Terminlar tadqiqiga oid bo'lgan ilmiy adabiyotlarda terminlarning tuzilishi jihatidan turlari turli-tuman tasnif qilingan. Ayrim manbalarda terminlar tuzilishiga ko'ra bir komponentli va ko'p komponentli bo'lsa, ba'zi manbalarda oddiy va murakkab, boshqalarida esa sodda, murakkab, termin-birikmalar tarzida tadqiq etilgan. Professor. Ulug' Tursunov o'zbek tili terminologiyasining boyish manbalari va termin yasash usullari haqida fikr yuritarkan, uch usul bilan terminlarning boyishini ta'kidlaydi:

1. Terminlarning semantik xususiyatiga ko'ra boyishi.
2. Terminlarning morfologik usul bilan yasalishi.
3. Terminlarning sintaktik yo'l bilan yasalishi

Uchinchi tur ya'ni terminlarning sintaktik yo'l bilan yasalishi keng ommalashgan usullardan biridir. Quyida didaktik terminlarning sintaktik modellarini misollar orqali tahlil qilishimiz mumkin.

1.Ot va otning munosabatidan hosil bo'lgan terminlar. Bunda ikkita ot so'z turkumiga oid so'zning o'zaro bog'lanishi natijasida, yangi terminologik birlik, ya'ni murakkab ilmiy tushuncha vujudga keladi.

Misollar: bilim darajasi, ta'lim jarayoni, dars rejasi.

Bilim darajasi – $[O^{b.k} \sim O^{e.k}] = SB$, ta'lim jarayoni – $[O^{b.k} \sim O^{e.k}] = SB$,

dars rejasi – $[O^{b.k} \sim O^{e.k}] = SB$

2.Sifat va otning o'zaro munosabatidan hosil bo'lgan terminlar. Bu didaktik terminologiyada eng ko'p faol ishlatiladigan sintatik qoliplardan biridir. Chunki ta'lim jarayonida ko'p tushunchalar belgi orqali ifodalanadi. Birinchi komponent belgini, ikkinchi komponent esa nomlanayotgan tushuncha yoki obyektini bildiradi.

Misollar: pedagogik jarayon, kommunikativ yondashuv, metodik qo'llanma. Bu misollarda sifatlar terminning ma'noviy aniqlovchisi bo'lib, otning ilmiy talqini aynan shu sifatlar bilan aniqlanadi.

Pedagogik jarayon – $[S \sim O] = SB$, kommunikativ yondashuv – $[S \sim O] = SB$,

metodik qo'llanma – $[S \sim O] = SB$.

3. Fe'l va ot munosabatidan hosil bo'lgan terminlar. Bu qolipdan yasalgan terminlarning tobe qismi harakat nomi shaklidagi fe'l bo'lib, hokim qismi esa ismlar, asosan, ot bilan ifodalanadi.

Misollar: baholash mezon, o'qitish uslubi, tahlil qilish ko'nikmasi

Baholash mezon – $[H^{b.k} \sim O^{e.k}] = SB$, o'qitish uslubi – $[H^{b.k} \sim O^{e.k}] = SB$

tahlil qilish ko'nikmasi – $[H^{b.k} \sim O^{e.k}]$.

Yuqorida tahlilga tortilgan terminlar didaktik terminologiyaning birgina ko'rinishi bo'lib, bu kabi terminlarlar struktur jihatdan tilshunoslikning sintaksis bo'limida o'rganiladi va nominative vazifa bajaradi.

Xulosa. Xulosa o'rnida shuni aytishimiz mumkinki, zamonaviy hayotda tilimizda chettan so'zlarning o'zlashishi, nafaqat kundalik hayotda, shu bilan bir qatorda, ilmiy sohada ham yangidan yangi terminlar kirib kelmoqda. Ularni tilimizga qabul qilish va moslashtirishda nafaqat semantik, morfologik, balki sintaktik jihatini ham e'tiborga olish maqsadga muvofiqdir. Didaktik terminlarni sintaktik me'yorlarga moslashtirish orqali ilmiy va pedagogik kommunikasiyani yanada samarali qilish mumkin. Shu yo'l bilan birga tilimizning boyligi saqlanib qoladi, terminlar esa ilmiy, aniq va izchil ifodalanadi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Pardayev A, Urinbayeva D.B, Islamova D.A. O'zbek terminologiyasi - Samarqand, 2020
2. Abduazizov A. A. Tilshunoslik nazariyasiga kirish. – Toshkent, 2010.
3. Qodirov B. O'zbek tilida didaktik leksikaning shakllanishi. Toshkent: TDPU nashriyoti, 2013.
4. Hoshimov A., Yo'ldoshev A. Pedagogik texnologiya asoslari. - Toshkent: O'qituvchi, 2010.
5. G'ulomov A. Til va ta'lim terminologiyasi. Toshkent: Fan, 2012.
6. Rahmonov N. Lingvodidaktika asoslari. Buxoro: BDU nashriyoti, 2018.
7. Xolmanova M. O'zbek terminologiyasining nazariy asoslari. - Toshkent: Universitet, 2016.
8. Shodmonqulova N. Ta'lim jarayonida terminlarning qo'llanishi. // Filologiya masalalari, 2020.
9. Karimova D. Didaktik terminlarning sintaktik xususiyatlari. - Toshkent: Ilm ziyo, 2019.